**Аннотация.** В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты управления активами коммерческих банков Республики Узбекистан, а также существующие проблемы в данной сфере. В исследовании рассмотрены структура банковских активов, факторы, влияющие на уровень их доходности и ликвидности, вопросы формирования и эффективного управления портфелем активов. На основе научных взглядов зарубежных и отечественных учёных раскрыта экономическая сущность управления активами и пассивами, а также обоснована значимость оптимизации портфеля активов.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, банковские активы, портфель активов, управление активами, ликвидность, доходность, кредитный портфель, проблемные кредиты, трансфертное ценообразование, ценные бумаги, диверсификация, финансовая устойчивость, управление активами и пассивами.

## KIRISH

Respublikamiz bank tizimida olib borilayotgan transformatsiya jarayonlari, xalqaro bank ishi talablariga mos bank xizmatlarini joriy etish va ularning ko'lamini kengaytirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini belgilovchi asosiy omillaridan biri bank tizimining likvidliligi hisoblanadi. Banklarning likvidliligini boshqarish borasida xalqaro Bazel qo'mitasining talablariga muvofiq respublikamiz bank tizimida likvidlilik me'yorlari orqali tartibga solish yo'lga qo'yilgan.

Bank tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'lib, uning asosiy shartlaridan biri banklar faoliyatining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Tijorat banklari yuqori samaradorlikka erishish uchun daromadlar manbai bo'lgan aktivlarni boshqarishni doimiy takomillashtirishni talab etadi.



Shundan kelib chiqib, tijorat banklari aktivlarini boshqarish bilan bog'liq mavjud muammolarni tadqiq etish va ularni bartaraf etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlari mazmunini ochib berish hamda ularning tarkibini optimallashtirish orqali boshqarish, banklar faoliyati samaradorligini oshirishda bank aktivlarini boshqarishga doir mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tijorat banklarining aktivlari va aktivlar portfelini boshqarishga doir tadqiqotlar xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan va bugungi kunda ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Amerikalik mashhur iqtisodchi J. Sinki "Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг" nomli asarida banklarning aktivlari va passivlarini boshqarishni uchta bosqichda amalga oshirish xususida to'xtalib o'tgan. Jumladan:

1-bosqich, umumiy bank aktivlarini boshqarish;

2-bosqich, aniqlashtirish, ya'ni bank likvidligini boshqarish, kreditlarni boshqarish va boshqa aktivlar portfelini boshqarish;

3-bosqich, erishilgan moliyaviy natijalar asosida bank faoliyati samaradorligini boshqarish [4].

Olimning fikricha, banklarning daromad keltiruvchi aktivlari "beton va shisha" — bank binosi kabi asosiy vositalar nazarda tutilganda — hisobga olinmaganda, ALMda (Asset and Liability Management) muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarda aktivlar va passivlarni boshqarishning asosi sifatida aktivlarni boshqarishda aktivlar toifalari miqdori va foiz stavkasi muhim hisoblanadi [4].

Taniqli iqtisodchi olim P. Rouz banklarning aktivlar va passivlarni boshqarish mohiyatini yanada kengroq ochib beradi, ya'ni "aktiv va passivlarni boshqarishning mohiyati bank balansini bank strategik dasturlari bilan mos kelishini ta'minlovchi strategiyani shakllantirish va chora-tadbirlarni amalga oshirishda ko'rinadi", degan fikrni qayd etadi [5].

Bundan tashqari, P. Rouz bank aktivlaridan foydalanish maqsadlarini va bank mavjud bo'lishi uchun uning likvidligini ta'minlashi lozimligini ta'kidlaydi. Banklar nafaqat mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarishi, balki yuqori foyda olishni ta'minlashi hamda bankning rentabelligini oshirish orqali bank aksiyadorlari oldidagi muhim maqsadlarga erishishi talab etiladi [5].

Mahalliy tadqiqotchilar M. Ermatov va A. Yo'ldoshev fikrlariga ko'ra, banklar balansining aktiv qismi to'rt guruhga ajratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan:

- birinchi guruhga naqd pullar va Markaziy bank yoki boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar kiradi hamda ushbu aktivlar birlamchi aktivlar hisoblanadi;

- ikkinchi guruhga qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan aktivlar kiradi, ya'ni ushbu aktivlarning naqd pulga aylantirish jarayonida bir qismi yo'qotilish ehtimolligi mavjud hamda ushbu aktivlar ikkilamchi aktivlar hisoblanadi;

- uchinchi guruhga korxonalar va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qo'yimlari kiradi. Ushbu toifadagi aktivlar yuqori tavakkalchilikka tortilgan hamda shu sababli mazkur aktivlarning qaytmaslik ehtimoli yuqori hisoblanadi;

- to'rtinchi guruhga bino-inshootlar, boshqa mol-mulklar va asbob-anjomlar kabi aktivlar kiradi hamda ushbu aktivlar nolikvid hisoblanadi [3].

Fikrimizcha, to'rtinchi guruh aktivlarini umuman likvid aktivlar deyish noto'g'ri, chunki ushbu aktivlar tarkibidagi ayrim aktivlarni sotishni hisobga olgan holda ularni qisman likvid deb atash mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqoladagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari aktivlarini boshqarish borasida o'tkazilgan tahlillar va tadqiqotlar asosida banklarning aktivlar portfelini boshqarish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida muammolar tizimlashtirilgan holda o'rganilgan va ularni guruhlash orqali nazariy hamda amaliy jihatdan ko'rib chiqamiz.

1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan va daromadlilik darajasi past bo'lgan aktivlar, ya'ni asosiy vositalar va kassali aktivlarning yuqori o'sish tendensiyasiga ega ekanligi.



O'zbekiston Respublikasi bank tizimida tijorat banklarining ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalar ulushining oshib borishi.

Tijorat banklari faoliyatida ko'chmas mulk muhim infratuzilma sifatida xizmat qiladi va bank xizmatlarini joriy etish, sotish hamda shu kabi boshqa jarayonlarda xizmat qiladigan moddiy ko'rinishdagi aktivlardan tarkib topadi. Ammo uning me'yordan ortishi bank aktivlari portfeli sifatining pasayishiga sabab bo'ladi.

1-jadval.

**Tijorat banklarining jami aktivlari tarkibida asosiy vositalar ulushining o'zgarishi, (foiz hisobida)**

Banklar	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.24
Davlat ulushi mavjud banklarda				
Aloqabank	6,7	7,4	9,5	13,6
Mikrokreditbank	1,8	2,3	2,9	4,4
Asaka bank	2,0	3,1	4,0	4,2
Sanoatqurilishbank	2,0	2,7	3,5	4,0
Agrobank	3,4	3,1	3,7	3,4
Turonbank	2,4	3,3	3,3	2,8
Xalq banki	2,9	3,4	3,1	2,6
Biznesni rivojlantirish banki	1,8	1,5	1,6	1,5
Milliy bank	0,8	0,7	0,8	1,0
Boshqa banklarda				
Trastbank	4,9	4,1	4,2	4,3
Ipak Yo'li bank	5,0	3,8	3,3	3,1
Hamkorbank	2,4	2,0	1,7	1,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tijorat banklarining ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalari natijasida banklar aktivlari tarkibida asosiy vositalar ulushi tahlil davrida oshib borgan. Tahlil davrida AT "Aloqabank"ning aktivlari tarkibida asosiy vositalarning ulushi 2024-yil yakuniga 13,6 foizga yetgani e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holat hisoblanadi va bankning samaradorlik ko'rsatkichlarini pasaytirgan asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Sanoatqurilishbank, Asaka bank va Aloqabank tomonidan Tashkent City ishbilamonlik hududida joylashgan binolarni qurish uchun 5 yildan ortiq vaqt sarflandi. Banklarning ushbu davrda binolarini qurishi uchun sarflangan resurslarning aylanmadan chiqqanligi va bugungi kunda bank aylanmasidan vaqtincha chetda qolganligi ushbu uch bankning samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatgan. Mazkur uchta bankdan Aloqabankning ulushi yuqori bo'lishi bank tizimida 2 va 3-o'rinda turadigan Sanoatqurilishbank va Asaka bank aktivlariga nisbatan bir necha barobar kichikligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida, ayniqsa, Toshkent shahrida ko'chmas mulk bahosining oshib borishi, so'nggi besh yillikda asosiy vositalar xarid qilgan yoki asosiy vositalarni kapital ta'mirlagan banklar faoliyatida asosiy vositalar ulushining ortishiga olib kelgan. Masalan, Mikrokreditbank tomonidan bino sotib olinishi, AT Xalq bankining yangi bino qurishi bank balansida asosiy vositalar ulushining ortishiga olib kelgan. AT Xalq bankida asosiy vositalarning jami aktivlardagi ulushi 3,4 foizdan 2024-yil yakunida 2,6 foizga pasayishi bankda transformatsiya jarayonlari natijasida bank filiallarini qayta restrukturizatsiyalash amalga oshirilgan hamda qulay bank xizmatlari ofislariga aylantirilib, bo'shab qolgan binolar sotilishi bilan izohlanadi. Natijada bank filiallari binolarini sotishdan tushgan mablag'lar bank aylanmasiga kiritilib, bankning aktivlar samaradorligini oshirishga erishilgan.

Boshqa mulkchilik shaklidagi banklar faoliyatida asosiy vositalarning jami aktivlardagi ulushi me'yor darajasida bo'lib, beqaror holatda ekanligini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xususiy banklar tarmoqlari faoliyati natijalariga tezlik bilan qarorlar qabul qilish, ya'ni ular faoliyatini tugatish yoki yangi ochish borasida tezkor qarorlar qabul qilinishi;
- bank faoliyati uchun zarur server yoki transport kabi asosiy vositalar xarid qilinganda balansdagi asosiy vositalar ulushiga ta'sir qilishi.

Tijorat banklarida kassali aktivlarning to'planishi va jami aktivlardagi ulushining ortib borishi.

Ma'lumki, banklarda kassali aktivlar bank likvidligini ta'minlash jihatidan muhim aktiv bo'lib xizmat qiladi, ammo uning ulushi ortib borishi banklarning daromadlilik ko'rsatkichlariga bosimni kuchaytirishi mumkin.



Bundan tashqari, banklar tomonidan naqd pullar qabul qilib olingandan keyingi bosqichlarda ularni qayta sanash va o'rnatilgan tartibda — taxlash, banderollash va boshqalar — saqlash kabi qo'shimcha xarajatlar yuzaga keladi. Ushbu qo'shimcha kassirlar shtatini oshirish, ish haqi va boshqa operatsion xarajatlar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda kassa apparatlari uchun qo'shimcha xarajatlar bank foydasining kamayishiga olib keladi.

2. Banklarning aktivlarini boshqarishda transfert narxlardan foydalanilmasligi va uni amalga oshirish metodologiyasining mavjud emasligi.

Tijorat banklarining ichki transfert narxlarini belgilash tizimi — bu ALM risklarini, jumladan, bank aktivlari va passivlari muddatligi o'rtasidagi tafovut va o'rnatilgan opsiyalar mavjudligi tufayli yuzaga keladigan risklarni hisobga olgan holda resurslarni jalb qilish va qayta joylashtirish borasidagi bank operatsiyalarining bank sof foizli daromadiga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini beradigan boshqaruv ma'lumotlarining ichki tizimidir.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishda asosan qat'iy belgilangan foiz stavkalarining qo'llanilishi sababli banklarning bozor kon'yunkturasi o'zgarishiga tezda moslashish va daromadini oshirish imkoniyati cheklanadi. Tijorat banklari amaliyotida aktiv operatsiyalarida qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foiz belgilash amaliyoti keng tarqalgan. Holbuki, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi faqatgina kredit resurslari bozorida sotib olingan resurslar hisobidan amalga oshiriladigan aktiv operatsiyalarda qo'llanilishi lozim.

3. Banklarning aktivlarini boshqarishda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amaliyotlarning rivojlanmaganligi.

a. Tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'i past darajada ekanligi.

Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, respublikamiz tijorat banklarining milliy va xalqaro fond birjalaridagi faoliyati yetarli darajada faollashmagan. Ushbu holat tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini tahlil qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi. Holbuki, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar banklarning kredit qo'yilmalaridan keyingi ikkinchi asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsion amaliyotini tahlil qilishda banklarning qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari bank aktivlari hajmidagi salmog'i past darajada bo'lib, 2024-yil yakunlari bo'yicha 5,9 foizni tashkil etgan. Bu esa respublikamiz tijorat banklarining fond bozorida operatsiyalari yuqori darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

4. Banklar aktivlar portfelining diversifikatsiya darajasining yetarli emasligi.

Tijorat banki aktivlar portfelining diversifikatsiya darajasi pastligi banklarning raqobatbardoshligini kamaytiradi. Hozirgi iqtisodiy sharoitda qimmatli qog'ozlar bozori yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa-da, banklar veksellar va obligatsiyalar chiqarish imkoniyatiga ega. Bank veksellari va obligatsiyalarini chiqarish tizimining yo'lga qo'yilishi bank passivlari tarkibining diversifikatsiyalanishiga olib keladi. Bu boradagi dastlabki qadamlarni qo'yish uchun avvalambor bank veksellari va obligatsiyalarini hisobga olish va amal qilish qoidalari, mexanizmi mukammal ishlab chiqilishi, qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilishi, banklarga imtiyozlar berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki passiv operatsiyalarining sifati butun bank tizimining raqobatbardoshligini hamda tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi.

5. Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini oshirish va uning barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarida kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yirik tijorat banklari faoliyatida kreditlar bo'yicha daromadlilik ko'rsatkichlarining barqarorligini oshirish zarurati mavjud bo'lib, bu kredit portfelini samarali boshqarish va foizli daromadlar barqarorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir.

Respublikamiz tijorat banklarida kreditlarning daromadlilik darajasi nisbatan past va beqaror ekanligi ularning moliyaviy holati va asosiy ko'rsatkichlariga noqulay ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu holatni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- banklarning kredit qo'yilmalari respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Shu sababli tijorat banklari yalpi daromadining asosiy qismi kreditlardan olingan foizli daromadlar hissasiga to'g'ri keladi;

- banklar faoliyatining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri tijorat bankining sof foizli daromadi miqdorining barqarorligi hisoblanadi. Kreditlardan olingan foizlar miqdorining kamayishi yalpi daromad miqdorining kamayishiga olib keladi va shuning asosida sof foizli daromad miqdorining kamayishi yuz beradi. Chunki sof foizli daromad miqdori bank amaliyotida qabul qilingan uslubiyotga ko'ra tijorat bankining foizli daromadlari summasidan foizli xarajatlar summasini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi;

- banklar kreditlaridan olingan foizlar miqdorining kamayishi muddati o'tgan kreditlar miqdorining o'sishi hisobiga yuz bergan bo'lsa, u holda tijorat bankining joriy likvidlilik darajasi sezilarli darajada pasayadi. Bu esa, o'z navbatida, bankning komissiya daromadlari miqdorining kamayishiga olib keladi.



6. Mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlarning daromadlilik darajasining beqarorligiga sabab bo'lgan asosiy omillar, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

a) muammoli (NPL) kreditlarning brutto-kreditlar hajmidagi salmog'i o'sish sur'atiga ega ekanligi.

Tadqiqotning uchinchi bobida amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli (NPL) kreditlar miqdorining o'sish sur'atiga ega ekanligi, kreditlarning o'rtacha foiz stavkasining pasayish tendensiyasining mavjudligi, brutto-kreditlarning mutlaq summada o'sish sur'atining yuqori ekanligi, pirovard natijada, brutto-kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda.

b) kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdorining o'sish sur'ati kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atidan ortda qolayotganligi.

v) kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining tijorat banklari brutto-aktivlarining o'rtacha miqdoriga nisbatan salmog'i xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy darajadan yuqori ekanligi.

Kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy darajasi 0,5 foizni tashkil etadi. Respublikamiz bir qator tijorat banklarida mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi uning me'yoriy darajasiga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir.

7. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlardan olingan foizli daromadlari bilan depozitlarga to'langan foizli xarajatlari o'rtasida oqilona mutanosiblikning ta'minlanmaganligi muammosi.

Dissertatsion tadqiqotning uchinchi bobini yozish jarayonida amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamizning yirik tijorat banklarida sof foizli spred koeffitsiyenti haqiqatda salbiy darajaga ega bo'lgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlardan olingan foizli daromadlari bilan depozitlarga to'langan foizli xarajatlari o'zgarishi (foiz hisobida)

Banklar	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.24	O'rtacha o'sish darajasi
<b>Tijorat banklari daromadlari o'sishi</b>						
Aloqabank	100,0	114,1	146,2	126,4	113,9	120,1
Trastbank	100,0	121,7	134,4	133,0	139,4	125,7
Xalq banki	100,0	113,7	106,3	129,9	121,3	114,2
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	100,0	126,2	129,4	140,4	129,3	125,1
<b>Tijorat banklari xarajatlari o'sishi</b>						
Aloqabank	100,0	97,4	124,5	134,9	139,1	119,2
Trastbank	100,0	147,8	113,6	176,4	254,9	158,5
Xalq banki	100,0	139,7	89,2	126,1	170,6	125,1
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	100,0	134,8	152,0	148,5	148,0	136,7
<b>Banklar daromadlari va xarajatlari o'sish sur'atidagi farq</b>						
Aloqabank	-	16,6	21,7	-8,4	-25,2	1,2
Trastbank	-	-26,1	20,7	-43,4	-115,5	-41,1
Xalq banki	-	-26,0	17,1	3,8	-49,2	-13,6
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	-	-8,7	-22,6	-8,1	-18,7	-14,5

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sishi 2020-yilga nisbatan olingan va o'tgan yillarning mos davri bo'yicha o'zaro taqqoslama tahlil amalga oshirilgan. Tahlil natijalaridan ko'rish mumkinki, bank tizimida banklarning foizli daromadlari yillik o'rtacha 125,1 foizga oshgani holda, bank



foizli xarajatlari 136,7 foizga oshgan. Bank tizimi bo'yicha foizli daromadlar va foizli xarajatlarning o'rtacha o'zgarishi 14,5 foizga pasaygan. Alohida olingan banklar faoliyatida Xalq banki va Trastbankda pasayish qayd etilgan bo'lsa, Aloqabankda ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilgan. Aloqabank faoliyati bo'yicha 2020–2024-yillar oralig'ida kreditlardan olingan foizli daromadlar o'rtacha 120,1 foizga ortgan bo'lsa, depozitlarga to'langan xarajatlari 119,2 foizga ortgan va umumiy holatda ular o'rtasidagi farq o'rtacha 1,2 foizga ortiq bo'lganini ko'rish mumkin.

Trastbankning so'nggi ikki yillikdagi faoliyati bo'yicha depozitlarga to'langan foizli xarajatlarning o'sishi yuqori bo'lib, bankning foizli daromadlari o'sish sur'atidan ortib ketgan va o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha 41,1 foiz bandga pasayish qayd etilgan.

Xalq banki faoliyatida kreditlardan olingan foizli daromadlar o'rtacha 114,2 foizga o'sib, foizli xarajatlarning o'sishi 125,1 foizni tashkil etgan hamda o'rtacha yillik 13,6 foizga pasaygani bank faoliyati samaradorligi nuqtai nazaridan e'tibor talab etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilib, tijorat banklarining foizli daromadlari o'sish sur'atini xarajatlari o'sish sur'atidan kamida ikki baravar yuqori bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bankning yuqori daromad olishini ta'minlashda xarajatlarga nisbatan o'sishini doimiy monitoring qilib borish zarur.

8. Respublikamiz yirik tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlarning brutto-aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayish tendensiyasi mavjudligi muammosi.

Dissertatsion tadqiqotning uchinchi bobini yozish jarayonida amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlarning brutto-aktivlar hajmidagi salmog'ining pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, respublikamizning yirik tijorat banklarida yuqori likvidli aktivlarning brutto-aktivlari hajmidagi salmog'ining pasayish tendensiyasi, asosan, tahlil qilingan davr mobaynida yuqori likvidli aktivlarning o'sish sur'atining brutto-aktivlar miqdorining o'sish sur'atidan past bo'lganligi, banklarning "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlari miqdorining kamayishi va ayrim banklarda kassali aktivlarning umumiy miqdorining kamayganligi bilan izohlanadi.

9. Tijorat banklarining kreditlari o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlanmaganligi muammosi.

Dissertatsion tadqiqotning uchinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan.

3-jadval  
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfeli va kreditlardan olingan foizli daromadlari o'zgarishi (foiz hisobida)

Banklar	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	31.12.24	O'rtacha o'sish darajasi
<b>Tijorat banklari kreditlarining o'sish darajasi</b>						
Aloqabank	100,0	134,3	119,0	112,7	123,7	117,9
Trastbank	100,0	124,1	126,2	143,6	115,2	121,8
Xalq banki	100,0	95,4	115,2	115,3	122,4	109,7
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	100,0	117,1	119,8	120,8	112,4	114,0
<b>Tijorat banklari daromadlari o'sish darajasi</b>						
Aloqabank	100,0	114,1	146,2	126,4	113,9	120,1
Trastbank	100,0	121,7	134,4	133,0	139,4	125,7
Xalq banki	100,0	113,7	106,3	129,9	121,3	114,2
Bank tizimi bo'yicha o'rtacha	100,0	126,2	129,4	140,4	129,3	125,1

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sishi va ulardan olingan daromadlar o'sish darajasi tahlilidan bank tizimi bo'yicha kredit qo'yilmalari o'rtacha 114,0 foizga o'sgan bo'lsa, Xalq bankining



kredit portfeli o'rtacha ko'rsatkichdan ortda qolgan va uning so'nggi besh yillikdagi o'sish darajasi 109,7 foizni tashkil etgan. Aloqabank va Trastbankning kredit portfeli o'sish darajasi o'rtachadan yuqori bo'lib, mos ravishda 117,9 va 121,8 foizga o'sgan. Banklarning kreditlardan olingan foizli daromadlari o'sishi 2020-yilga nisbatan olingan va o'tgan yillar bo'yicha o'rtacha 125,1 foizga oshgan. Ammo tahlil obyekti sifatida olingan Aloqabank va Xalq bankida o'sish darajasi bank tizimi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan va mos ravishda 120,1 foiz va 114,2 foizni tashkil etgan. Trastbankda ushbu ko'rsatkich 125,7 foizni tashkil etgan va o'rtachadan yuqori bo'lgan. Ushbu holatni banklararo raqobatning rivojlanishi va xususiy banklarning kreditlardan olinadigan foizli daromadlari o'sish sur'atining yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

O'z navbatida, tijorat banklarida kreditlar qoldig'ining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash banklarda kredit tahlilini chuqurlashtirish, kreditlar foiz stavkalarining barqarorligiga erishish va kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklarida kredit tahlilini chuqurlashtirish, fikrimizcha, quyidagilarni ko'zda tutishi lozim:

kredit oluvchilarning pul oqimi barqarorligining tahlilini kuchaytirish;

kredit oluvchi kompaniyalar faoliyat yuritayotgan tarmoqlardagi holat tahlilini kuchaytirish;

kredit oluvchilarning debitor qarzdorligi va tovar zaxiralarning aylanish tezligiga ta'sir etayotgan omillarning tahlilini amalga oshirish;

makroiqtisodiy siyosatning o'zgarishini xo'jalik yurituvchi subyektlar va banklar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish;

tijorat banklarining kreditlash amaliyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan risklar — kredit riski, foiz riski, valyuta riski — tahlilini kuchaytirish.

Tijorat banklari kreditlarining o'sish sur'ati bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida:

- birinchidan, bank kreditlari o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlash lozim;

- ikkinchidan, kreditlar bo'yicha muddati o'tgan foiz to'lovlarini tezkor ravishda, qisqa muddatli kreditlar bo'yicha 60 kun o'tishini, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha 90 kun o'tishini kutmasdan, bank balansidan chiqarish va ularni undirish choralarini ko'rish zarur;

- uchinchidan, bank tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar qoldig'i va imtiyozli kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdori tijorat asosida ajratilgan kreditlar va ulardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'atlarini aniqlash va tahlilida inobatga olinmasligi lozim;

- to'rtinchidan, banklar kreditlari uchun olingan garov obyektlarini sotish muddatining cho'zilib ketayotganligi va garov obyektlarini baholash amaliyotida ehtiyotkorlikni kuchaytirish zarurligini e'tiborga olgan holda, uchinchi shaxslar kafilligi va kafolatlari hamda sug'urta kompaniyalari sug'urta polisi asosida berilayotgan kreditlar hajmini oshirish kerak.

Tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar salmog'ini pasaytirish uchun, birinchidan, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini shakllantirishda bir vaqtning o'zida kredit zaxiralari yaratishning ikki usulidan, ya'ni yo'qotishlar statistikasiga asoslangan umumiy zaxirani yaratish usuli va muammoli kreditning joriy holatiga asoslangan maxsus zaxira yaratish usulidan foydalanish kerak; ikkinchidan, statistik modellashtirish usullarini — ko'p o'lchovli polinomial regressiya usuli, avtoregressiv model, Monte-Karlo usuli — qo'llagan holda, kreditlarni sifati bo'yicha segmentatsiya qilishni amalga oshirish zarur; uchinchidan, muammoli kreditlarni boshqarishning innovatsion usullarini respublika banklari amaliyotiga joriy qilish kerak.

Tijorat banklarida kreditlarni qaytarish muammosi birdan paydo bo'lmaydi, balki kredit berilgandan so'ng ma'lum vaqt o'tishi bilan paydo bo'ladi. Shuning uchun joriy davrda standart kredit sifatida baholangan kredit ma'lum vaqt o'tgandan so'ng substandart kreditga yoki shubhali kreditga aylanishi mumkin. Shu sababli kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini shakllantirishda zaxiralar yaratishning har ikkala usulidan bir vaqtning o'zida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijoratbanklari aktivlarinisamaraliboshqarishbanklarmoliyaviy barqarorligi, likvidligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari respublika tijorat banklari aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan yoki past daromadli aktivlar ulushining ortishi, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, aktivlar portfelining diversifikatsiya darajasi pastligi hamda kreditlar daromadligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Shuningdek, ayrim tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushining o'sishi, foizli xarajatlar o'sish sur'atining foizli daromadlar o'sishidan yuqori bo'lishi va yuqori likvidli aktivlar salmog'ining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holatlar banklar moliyaviy natijalari va aktivlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, transfert narxlash mexanizmlarini joriy etish, kredit tahlilini



chuqurlashtirish, muammoli kreditlarni samarali boshqarish hamda qimmatli qog'ozlar bozorida faollikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tijorat banklarida aktivlarni boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish va aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Abdullayev Y. Bank ishi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 532 b.
3. Ermatov M., Yo'ldoshev A. Bank balansi tahlili // Bozor, pul va kredit. – 2002. – №1. – B. 10–11.
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / пер. с англ. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.
5. Роуз П. С. Банковский менеджмент: предоставление финансовых услуг / пер. с англ. – Москва: Дело ЛТд, 1995. – 743 с.
6. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент): учебник / под ред. О. И. Лаврушина. – Москва: Юристъ, 2002. – 687 с.
7. Зубов С. А. Управление активами коммерческого банка: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Москва: Российская экономическая академия им. Г. В. Плеханова, 1997. – 23 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2024-yil uchun hisoboti. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>